

O'ZBEKISTONDA 2020-2024 YILLAR ORALIG'IDA BIZNESNI RIVOJLANISH STRATEGIYASI

Umirov Islombek Furkatovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali o'qituvchisi.

Xurramov Shohjahon Abror o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali iqt 222-gurux talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11115273>

Annotatsiya. O'zbekistonda xususiy sektor va hamkorlikdagi bizneslarning rivojlanishi va ularning rivojlanish bosqichlari. Tadbirkorlarga yaratilgan imkoniyatlar va yengilliklar. Xususiy biznes sektorlarning rivojlanishi davlatga olib keladigan qulayliklari.

***Kalit so'zlar:** Innovatsiya, biznes, xususiylashtirish, raqobatbardoshlik, mahsuldorlik, mikrofirma, yakka tartibdagi tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, ma'lumotlar tahlili, tahliliy usul, prognoz.*

BUSINESS DEVELOPMENT STRATEGY IN UZBEKISTAN BETWEEN 2020-2024

***Abstract.** The development of private sector and cooperative businesses in Uzbekistan and their development stages. Opportunities and reliefs created for entrepreneurs. Development of private business sectors brings convenience to the state.*

***Key words:** Innovation, business, privatization, competitiveness, productivity, micro-firm, individual entrepreneurship, family entrepreneurship, small business, data analysis, analytical method, forecast.*

СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ НА 2020-2024 ГГ.

***Аннотация.** Развитие частного сектора и кооперативного бизнеса в Узбекистане и этапы их развития. Возможности и льготы, созданные для предпринимателей. Развитие частного предпринимательства приносит пользу государству.*

***Ключевые слова:** Инновации, бизнес, приватизация, конкурентоспособность, производительность, микрофирма, индивидуальное предпринимательство, семейное предпринимательство, малый бизнес, анализ данных, аналитический метод, прогноз.*

KIRISH.

Bozor iqtisodiyotining amal qilishi iqtisodiyotning jadal rivojlanib borayotgani va milliy iqtisodiyotning turmush darajasini oshirishning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan biznes bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bu tarmoqlarni rivojlantirish orqali mehnat unumdorligi va raqobatbardoshligi oshirilmoqda, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, qashshoqlik kamaymoqda va

jamiyat maqsadlariga erishilmoqda, xususan aholining muayyan guruhlariga o'z-o'zini ta'minlashga ko'maklashmoqda.

Ko'pgina biznes muvaffaqiyatsizliklariga sabab boladigan ba'zi muammolar mavjud, ular: yomon operatsiyalarni boshqarish, tajriba yetishmasligi, yomon moliyaviy menejment, asosiy vositalarga ortiqcha investitsiya qilish, yomon kredit amaliyoti, rejani tuzatmaslik, noto'g'ri joylashtirish, inventar nazoratining yo'qligi va boshqalar.

Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga nazar soladigan bo'lsak ularning davlat tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlardan xususiy sektorlar ko'pligini ko'rishimiz mumkin. Bu shuni anglatadiki davlat iqtisodini rivojlanishida xam xususiy sektorlarning o'rni yuqori hisoblanadi.

Xususiy sektorlarning rivojlanishi ular o'zaro raqobat bardosh bo'lish uchun doim yuqori natija qayd etishga kirishadi bu esa davlat iqtisodini boy etishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ham imzolangan 2022-2026 yillar uchun imzolangan harakatlar strategiyasi dasturida ham xususiy biznesni qo'llab quvvatlash to'g'risidagi bo'limi ham kiritilgan.

2020 yilda O'zbekistonda biznesni rivojlantirish darajasi o'rganildi

So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishdagi yutuqlarga qaramasdan, pandemiya biznesga qiyinchiliklar tug'dirdi. Tadbirkorlarning davlat oldidagi qarzi 3,4 barovarga, muddati o'tgan kreditlar miqdori 63%ga oshdi. Respondentlarning 44% majburiy homiylik bilan shug'ullangan.

Bu ko'rsatkichlar esa 2023-yil oxiriga kelib sezilarli darajada o'zgardi Yil oxirida asosiy kapitalga investitsiyalar 0,5 foizga qisqardi. Shu bilan birga, markazlashtirilgan investitsiyalarni kamayish tendensiyasi davom etmoqda, ularning hajmi 23 foizga pasaydi.

Hukumat tomonidan kafolatlangan xorijiy investitsiyalar, kreditlar va kreditlarni jalb qilish bo'yicha me'yoriy cheklovlar ularning 33 foizga qisqarishiga olib keldi. Shuningdek, budjet mablag'lari hisobidan investitsiyalar 15 foizdan ko'proqqa kamaydi.

Shu bilan birga, markazlashtirilmagan investitsiyalar hajmining 4,9 foizga o'sishi kuzatilmoqda. Xususan, markazlashtirilmagan investitsiyalarning aksariyat qismini tashkil etuvchi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 1,3 foizga oshib, 8,5 milliard dollarni tashkil etdi.

Korxonalar hisobidan yo'naltirilgan investitsiyalar 8,9 foizga, aholi mablag'lari 3,2 foizga, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 7,8 foizga oshdi.

Umuman olganda, yil davomida investitsiyalarning umumiy hajmida markazlashmagan investitsiyalarning ulushi 80,8 foizdan 85,1 foizgacha o'sdi, markazlashtirilgan investitsiyalarning ulushi esa mos ravishda 19,2 foizdan 14,9 foizgacha pasaydi.

Yil yakunlariga ko'ra, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi kuzatilmoqda.

Bu ko'rsatgichlar o'z navbatida qilinayotgan va ishlab chiqilayotgan loyixlarni amalda isboti hisoblanadi.

XULOSA.

O'zbekistonda biznesni yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar beriladi:

-tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy – xo'jalik faoliyatiga davlat va nazorat organlarining aralashuvini qisqartirish;

-tadbirkorlik subyektlari uchun soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha maksimal qulay shart-sharoitlar, imtiyoz va preferensiyalar yaratish, hisobot tizimini hamda moliya, soliq va statistika organlarida hisobotlarni taqdim etish mexanizmini takomillashtirish va standartlashtirish;

-biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalar, ayniqsa, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlari va xususiy kapitalni keng jalb etish va yo'naltirish;

-axborotni boshqarish tizimini yanada rivojlantirish va biznesga maslahatlar berish, shuningdek, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish masalalarida;

-kichik biznes subyektlarining bank kreditlari, xomashyo resurslari olish imkoniyatlarini kengaytirish.

REFERENCES

1. <https://daryo.uz/2023/01/23/2022-yilda-ozbekiston-iqtisodiyoti-qanday-rivojlangani-tahlil-qilindi>
2. <https://lex.uz/acts/-3238384>
3. <https://scienceweb.uz/researcher/2265>
4. <https://stat.uz/uz/>